

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



MOLIYAVIY HISOBOT

fanining
ISHCHI O'QUV DASTURI
(SILLABUS)
(ikkinchi mutaxassislik(sirtqi))

Bilim sohasi: 400 000 - Biznes, boshqaruv va xuquq
Ta'lim sohasi: 410 000 - Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi: 60410100 - Buxgalteriya hisobi va audit
(tarmoqlar bo'yicha)

| | | | |
|-----------------------------------|---|---|--|
| Fan/modul' kodi MX1606 | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 6 | Kredit 6 |
| Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili O'zbek | Haftadagi dars soatlari | 5 |
| Fanning nomi | Auditoriya masbg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| 1. | Moliyaviy hisobot 20 (8m / 12a) | 160 | 180 |

1. Fanning mazmuni

Ushbu fan "Moliyaviy hisobot" deb nomlanib, unda iqtisodiyot sektorlarida moliyaviy hisobotning o'rni va ahamiyati, moliyaviy hisobot tuzishning asosiy tamoyillari, moliyaviy hisobotning asosiy shakllari va ko'rsatkichlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining buxgalteriya balans tavsifi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapitali to'g'risidagi hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzlari holati, moliyaviy hisobotga ilova qilinuvchi tushuntirish xatlarining xususiyatlari qamrab olgan. "Moliyaviy hisobot" fani talabalarning ushbu fanni chuqur o'rganishi buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, iqtisodiy tahlil hamda audit fanlari hamda xo'jalik sub'ektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Fanning asosiy jihati xo'jalik yurituvchi sub'ektlari moliyaviy hisobotini tayyorlashga qo'yilgan talablar, asosiy shart-sharoitlari, ularning asosiy tamoyillari va qoidalarini; xo'jalik yurituvchi sub'ektlari moliyaviy hisobotidagi iqtisodiy atamalar, ularning mazmun hamda mohiyatini; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mablag'lari, xususiy kapitali, moliyalashtirish manbalari, shuningdek o'z va jalb qilingan mablag'larining manbalarini holati va miqdor hamda turi jihatidan o'zgarishini bildiradigan axborot-larni tayyorlashda ro'y beradigan muammalarni hal etish malakalariga ega bo'lishini ta'minlaydi

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. O'zbekistonda va xalqaro amaliyotda moliyaviy hisobotning mazmuni va ahamiyati

Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar va ularni qiziqitiruvchi ma'lumotlar
Moliyaviy hisobotning tarkibi va tuzilishi
Moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillari
Moliyaviy hisobotni tuzish oldinda amalga oshiriladigan hisob-kitoblar
Moliyaviy hisobotni taqdim qilish tartibi

Moliyaviy hisobotni taqdim etish davriyligi

*2-mavzu. Hisob siyosati

Hisob siyosatining buxgalteriya hisobi va hisoboti bilan bog'liqligi, Hisob siyosatining buxgalteriya hisobotiga ta'sirining iqtisodchilar tomonidan o'rganilishi, Hisob siyosatining jihatlari va ularda yoritiladigan masalalar.

Hisob siyosatining uslubiy jihatida buxgalteriya hisobotini tuzish uchun zarur ma'lumotlarning shakllantirilishi, Hisobotni tuzishda hisob siyosatining texnik jihatining vazifalari

3-mavzu. Moliyaviy natijalar hisobi

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning mazmuni va mohiyati. Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar hisobi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning huquqiy va me'yoriy asoslari. Xalqaro amaliyotda moliyaviy natijalarni shakllantirish qoidalari

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining tavsifi. Xalqaro amaliyotda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda daromad, xarajat, foyda va zararlarini kiritish usullari

Daromadlarni tan olish va baholash. Asosiy faoliyatining boshqa daromadlarini hisobga olish. Davr xarajatlari tarkibi va hisobi. Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarni hisobda aks ettirish. Favqulodda foyda va zararlar hisobi. Soliq to'lagunga qadar foydani aniqlash va soliqqa tortish. Sof foyda va uning ishlatilishini hisobda aks ettirish.

*4-mavzu. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning mazmuni va ahamiyati

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning me'yoriy asoslari

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda korxonada faoliyati turlarining aks ettirilishi

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish bosqichlari

Pul oqimlari harakatini to'g'ri va egri usullarda aniqlash uslubiyoti.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish usullari

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish tartibi

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarini izoh va tushuntirish xatlarida yoritish

Pul oqimlarini bashoratlash va uni amalga oshirish bosqichlar

5-mavzu: Buxgalteriya hisoboti.

Buxgalteriya hisobotining mazmun-mohiyati va ahamiyati. Buxgalteriya hisobotining tarkibiy tuzilishi. Hisobot shakllarining tuzilish tamoyillari. Hisobotga ilovalar, tushuntirishlar va ma'lumotlar to'g'risida tushunchalar.

Hisobotlarni tuzish, ularni to'ldirish va taqdim etish tartibi.
Buxgalteriya hisoboti integratsiyasi.

***6-mavzu. Xususiy kapital hisobi.**

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot mazmuni va ahamiyati. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari va ularning mazmuni, Ustav kapitalning shakllanishi va uning xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish tartibi Qo'shilgan kapital bilan bog'liq muomalalarni «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda» aks ettirish tartibi. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda rezerv kapitaliga oid ko'rsatkichlarni kiritish qoidalari.

Taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi ma'lumotlarning shakllanishi va ularni hisobda aks ettirish tartibi. Sotib olingan xususiy aksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobotda aks ettirilishi. Xususiy kapital to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirish qoidalari. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari izoh va tushintirish xatlarida ochib berish

7-mavzu. Hisobotlarni tuzish va taqdim etish.

Moliyaviy hisobot va uning tarkibi. Moliyaviy hisobotni tuzishga tayyorgarlik ko'rish tartibi (inventarizatsiya). Moliyaviy hisobot axborotidan foydalanuvchilar. Oralik moliyaviy hisobotlar.

Buxgalteriya balans va uni tuzish tartibi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot va uni tuzish usullari. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot. Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar, ilovalar va izoxlar.

Soliq va statistik hisobotlar tarkibi. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari va unga auditorlarning xulosasini zaruriyligi.

“Moliyaviy hisobot” fanidan ma’ruza mashg’ulotlarning mavzular va soatlar bo’yicha taqsimlanishi:

| N ^o | Mavzuning nomi | Ajratilgan soat |
|----------------|--|-----------------|
| 1 | O'zbekistonda va xalqaro amaliyotda moliyaviy hisobotning mazmuni va ahamiyati | 2 |
| 3 | Moliyaviy natijalar hisobi | 2 |
| 5 | Buxgalteriya hisoboti | 2 |
| 7 | Hisobotlarni tuzish va taqdim etish | 2 |
| | JAMI | 8 |

Izoh: Yuqorida yulduzcha () bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.*

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. O'zbekistonda va xalqaro amaliyotda moliyaviy hisobotning mazmuni va ahamiyati.*

2-mavzu. Hisob siyosati

3-mavzu. Moliyaviy natijalar hisobi

4-mavzu. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot

5-mavzu: Buxgalteriya hisoboti.

6-mavzu. Xususiy kapital hisobi.

7-mavzu. Hisobotlarni tuzish va taqdim etish.

“Moliyaviy hisobot” fanidan amaliy mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi

| N ^o | Mavzuning nomi | Ajratilgan soat |
|----------------|-------------------------------------|-----------------|
| 1 | Hisob siyosati | 2 |
| 2 | Moliyaviy natijalar hisobi | 2 |
| 3 | Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot | 2 |
| 4 | Buxgalteriya hisoboti | 2 |
| 5 | Xususiy kapital hisobi | 2 |
| 6 | Hisobotlarni tuzish va taqdim etish | 2 |
| | JAMI | 12 |

Izoh: Yuqorida yulduzcha () bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.*

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llaniladi.

IV. Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlarning turli shakllari mavjud bo'lib, unda talaba o'qituvchi rahbarligida fan bo'yicha yangi bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshira oladi.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- ❖ darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- ❖ tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zgartirish;
- ❖ avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi, nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- ❖ maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- ❖ yangi texnikalarni, apparaturalarni, ilmtalab jarayonlar va

| | |
|---|-----------|
| <p>texnologiyalarni o'rganish;</p> <ul style="list-style-type: none"> ❖ talabning ilmiy tekshirish ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish; ❖ faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (xizmat o'yinlari, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.) ❖ masofaviy (distantion) ta'lim. ❖ o'quv qo'llanmalari yordamida fan mavzularini o'rganish. <p>Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Buxgalteriya balansi. 2. Moliyaviy natijalar hisobi 3. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot 4. Buxgalteriya hisoboti. 5. Xususiy kapital hisobi. 6. Hisobotlarni tuzish va taqdim etish. 7. Majburiyatlar, mehnat va unga haqi xarajatlari. <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p>V. Nazorat topshiriqlari uchun tavsiya etiladigan mavzular va ularni bajarish uchun qo'yiladigan talablar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) Hisob siyosati. 2) Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning mazmuni va ahamiyati. 3) Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari va ularning mazmuni. <p>Nazorat topshiriqlari talabalarga semestrning boshlanish haftasida professor o'qituvchilar tomonidan taqdim etiladi va talabalar berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatmalar asosida kafedra tomonidan tuzilgan komissiya a'zolariga (tasdiqlangan grafik bo'yicha) yakuniy nazorat topshirish kuniga qadar amalga oshiriladi.</p> <p>Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar</p> <p>Fan bo'yicha kurs ishlari o'quv rejada nazarda tutilmagan.</p> <p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> -Moliyaviy hisobot fani buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyoti, shu jumladan xarajatlar, byudjetlashtirish va qarorlarni qabul qilish usullari bo'yicha ilg'or bilimlarni namoyish etadi. -Moliyaviy hisobot nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilg'or bilimlarni namoyish etish, shu jumladan yangi tashkilotlarda strategik boshqaruv hisobi, xarajatlarni boshqarish va boshqaruv hisobi va boshqarish masalalari. -Moliyaviy hisobot buxgalteriya amaliyotini turli tashkiliy sharoitlarda, | <p>3.</p> |
|---|-----------|

| | |
|---|--|
| <p>ayniqsa aniq amaliy tadqiqotlar orqali tushunish va tushuntirish.</p> <p>-Faoliyatni o'lchash modellari, boshqaruv nazorati va uzatish narxлари va yangi amaliyotning tarqalishi jarayonlari kabi fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni namoyish etish.</p> <p>-Moliyaviy hisobning murakkab masalalarini tushuntirish va menejerlarni zamonaviy buxgalteriya hisobida qanday qilib yaxshiroq tushunish / qo'llash mumkinligiga ishonitirish uchun taqdimot ko'nikmalarini rivojlantirish malakasiga ega bo'lishi kerak.</p> <p>4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni echish; • so'rov o'tkazish. | <p>5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fandan talabalarni bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test nazoratini topshirish.</p> <p>Diqqat! Topshiriqlar va nazorat ishlari dedlayn (qat'iy belgilangan vaqt) tarzida shakllantiriladi va talabalar tomonidan bajarish muddatida platformaga joylashtiriladi. Muddat yakunlanganidan so'ng javoblar qabul qilinmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.</p> <p>Talabalar bilimni baholash mezonlari</p> <p>Moliyaviy hisobot fanidan talabalarni baholashda, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga qatnashishi va unda olgan baholarini inobatga olinadi.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Oraliq nazorati ma'ruza, amaliy mashg'ulotlaridagi mavzularni qamrab oladi. Talabanning nazorat topshiriqlarini topshirish jarayonida to'plagan bali oraliq nazorat bali hisoblanadi. |
|---|--|

| | |
|--|--|
| <p style="text-align: center;">OB=(N.T +A.M+MT)/3</p> <p>Bu yerda: OB- oraliq baholash; N.T- nazorat topshiriqlari; A.M- amaliy mashg'ulotlar. MT- mustaqil ta'lim topshiriqlari.</p> <p>Oraliq baholash bandlarining har biri kamida 60% holatda o'zlashtirilishi lozim. Agar nazorat ishini yoki biror bandning o'zlashtirilishi 60% dan kam bo'lsa, o'zlashtirilmagan hisoblanadi va yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.</p> <p style="text-align: center;">OB≥60%,</p> <p>Yakuniy nazorat tarkibi: auditoriya mavzularidan (50%) va mustaqil ta'lim mavzularidan (50%) yakuniy nazorat savollari tuziladi.</p> <p>Yakuniy nazoratda kamida 60% ni o'zlashtirilishi shart. Agar 60% dan kam bo'lsa yakuniy nazoratdan o'tmagan hisoblanadi. Yan≥60%.</p> <p>Fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.</p> <p>Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha topshiriqlar 2-5 baho oralig'ida baholanadi.</p> <p>Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishdan o'rtacha 3,4,5 baho olgan talaba oraliq nazorat (ON)dan o'tgan hisoblanadi.</p> <p>Yakuniy nazorat 2-5 baho oralig'ida baholanadi. Yakuniy nazorat turi bo'yicha 3,4,5 baho olgan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi. Aks holda qoniqsiz baho (2 baho) olgan talaba akademik qarzdor sifatida qayta topshirishga qoldiriladi.</p> | <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1 Ostonoqulov M. «Buxgalteriya hisobi nazariyasi», - T.: «Iqtisod moliya» 2007 yil. 2 Egamberdieva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b. 3 Karimov A., Muqumov Z, Tulaev M., Kurbanbaev J., Raxmonov SH. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -194 b. 4 Kuljonov O., Ortiqov X., YUgay L., Tuxsanov X., M.Xayitboev Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -246 b. <p style="text-align: center;">Qo'shimch adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1 Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - Т.: Ўзбекистон, 2023. |
|--|--|

| | |
|--|---|
| <ol style="list-style-type: none"> 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatmasidan kelib chiqqan holda fanning vazifalari. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib korxonada iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish masalalarini o'rganish. 3 Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b. 4 Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 104 b. 5 Jumanazarov S., Muxammedova D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Masalalar to'plami. -T.: TMI, 2018. 6 Xolmirzaev Ulug'bek Abdulazizovich. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent - 2023. | <ol style="list-style-type: none"> 7 Namangan muhandislik - qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. 8 Fan/modul' uchun ma'sullar: D.Umurzoqov - NamMQI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida kata o'qituvchisi T.Ubaydullayev - NamMQI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida o'qituvchisi A.Isomuxamedov - NamMQI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida stajyor o'qituvchisi 9 Taqrizchilar: U.Xolmirzaev - NamMQI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD) O.Sobirov - NamMTI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD). |
|--|---|